
TOSHLOQ TUMANIDA “ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI” MUNOSABATI BILAN TANTANALI TADBIR BO‘LIB O‘TDI

Bayram tadbirida tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev hamda tuman IIB boshlig‘i Farxodjon Bektoshevlar soha xodimlarini bayram bilan samimiy muborakbod etdilar.

Tadbirda tuman hokimi so‘zga chiqib, halqimizning tinch va osuda hayot kechirishini ta‘minlashda, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarlikka qarshi kurashishda, jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar idoralari xodimlarining xizmatlari katta ekanligini ta‘kidlab, bayram bilan tabrikladi.

Shuningdek, Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlashda mashaqqatli shu bilan birga sharafli faoliyat yuritayotgan bir guruh xodimlarga Faxriy yorliq hamda esdalik sovg‘alar topshirildi.

Bayram tadbirida bir piyola choy ustidagi konsert dasturi yig‘ilganlarda xush kayfiyat uyg‘otib, katta taassurotlar qoldirdi.

2022-10-28 09:17:28